Sifatli ta’lim – yorqin kelajak


TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ILMIY XABARNOMA

ISSN: 3060-4761

ILMIY JURNAL

№ 2 (06) IYUN 2026



SIFATLI TA'LIM – YORQIN KELAJAK

ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARNOMASI

SCIENTIFIC BULLETIN OF TERMEZ STATE
PEDAGOGICAL INSTITUTE

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТЕРМЕЗСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА

TERDPI ILMIY XABARNOMASI

2026/ № 2



O'zR OAK ning 2025-yil 24-sentabrdagi
375/5-sonli qarori bilan milliy ilmiy nashrlar
ro'yxatiga kiritilgan

Termiz – 2026

ISSN: 3060-4761

Muassis:
Termiz davlat pedagogika instituti

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARNOMASI

ILMIY-USLUBIY JURNAL
Jurnal bir yilda bosma va elektron (o'zbek, rus, ingliz tillarida) shaklda chop etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 6-iyundagi № 303723-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Matnlarda foydalanilgan manba, ko'chirma, mazmun va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgar. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 12.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 26,25
Ofset bosma. Ofset qog'ozi.
Adadi: 100 nusxa
Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma: 174
Tahririyat manzili: Termiz tumani "Yangiobod" MFY, At-Termiziy ko'chasi 1-A uy.
"TerDU bosmaxonasi"da chop etildi.
Bosmaxona manzili: Termiz shahri, A.Navoiy ko'chasi, 42 uy.

BOSH MUHARRIR:
Xasanov Azizbek, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Kuldasheva Shaxnoza, kimyo fanlari doktori (DSc), professor

TEXNIK MUHARRIR:
Qurbanov Abdimalik, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MAS'UL KOTIB:
To'rayev Ro'ziboy, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIR HAY'AT A'ZOLARI:
Bernd Müller-Jacquier,f.f.d, professor (Germaniya)
Ponomaryova Lyudmila, p.f.d, professor (Rossiya)
Gerasyov Aleksandr, p.f.d, professor (Rossiya)
Buligina Yelena, f..f.d, professor (Rossiya)
Eshmetov Izzat, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Abdikamalova Aziza, k.f.d, professor (O'zbekiston)
Salixanova Dilnoza, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Jumaeva Dilnoza, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Sagdullayeva Dilafruz, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Turamuratov Ulug'bek, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Norbo'tayev Xo'shboq, p.f.d,(DSc) professor (O'zbekiston)
To'rayev Rasul, f.m.f.n, professor (O'zbekiston)
Shamuratova Nagima, q.x.f.d. (DSc), professor (O'zbekiston)
Saidov Chorixon, f.m.f.d, professor (O'zbekiston)
Bozorov Lutfulla, k.f.d., (DSc) (O'zbekiston)
Mahmudov Yusup, p.f.d, professor (O'zbekiston)
Xudoyqulov Xol, p.f.d, professor (O'zbekiston)
Alimov Parda, f.f.d, professor (O'zbekiston)
Xoliqnazarov Begali, b.f.n, dotsent (O'zbekiston)
Qodirov Baxtiyor, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Tojiyev Panji, t.f.d,(DSc), dotsent (O'zbekiston)
Qosimov Shavkat, PhD, professor (O'zbekiston)
Saidaxmatov Sharifbek, t.f.f.d., PhD,dotsent (O'zbekiston)
Xudoyberdiyev Shuxrat, PhD,dotsent (O'zbekiston)
Umarov Aziz, PhD (O'zbekiston)
Abduraxmonov Eldor, k.f.d, ,(DSc), professor (O'zbekiston)
Shabbazova Dilfuza, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Nuritdinova Xurshida, PhD (O'zbekiston)
Quvvatova Mohira, PhD (O'zbekiston)
Mardonova Lobar, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Nurmatov Norqobil, q.x.f.d, (DSc), professor (O'zbekiston)
Ismailov Botir, PhD, (O'zbekiston)
Sattorov Sardor, PhD (O'zbekiston)
Allamuradov Anvar, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Kabilova Sayyora, PhD (O'zbekiston)
Ismailov Murodulla, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Eshmuradov Olmosbek, PhD,dotsent (O'zbekiston)
Isayev Oybek, Phd (O'zbekiston)
Norliyev Rustam, f.f.n, dotsent (O'zbekiston)
Berdiyeva Muhabbat, Phd, professor (O'zbekiston)
Shirnazarova Zamira, Phd,dotsent (O'zbekiston)
Narbasheva Mexri, p.f.n, professor (O'zbekiston)
Kuzimurotova Dinara, Tahririy-nashriyot bo'limi muharriri (O'zbekiston)

ISSN: 3060-4761

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Хасанов Азизбек, доктор педагогических наук (DSc), профессор.

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА:
Кулдашева Шахноза, доктор химических наук (DSc), профессор

ТЕХНИЧЕСКИЙ РЕДАКТОР:
Курбанов Абдималик, доктор философии по техническим наукам (PhD)

ОТВЕТСТВЕННЫЙ СЕКРЕТАРЬ:
Тураев Рузибой, доктор философии по педагогическим наукам (PhD)

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОГО СОВЕТА:
Бернд Мюллер-Жакье, д.ф.н., профессор (Германия)
Пономарева Людмила, д.п.н., профессор (Россия)
Герасёв Александр, д.п.н., профессор (Россия)
Булыгина Елена, д.ф.н., профессор (Россия)
Эшметов Иззат, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Абдикамалова Азиза, д.к.н., профессор (Узбекистан)
Салиханова Дильноза, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Джумаева Дильноза, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Сагдуллаева Дилафруз, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Турамурадов Улугбек, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Норбутаев Хушбок, д.п.н, профессор (Узбекистан)
Тураев Расул, к.ф.м.н, профессор (Узбекистан)
Шамуратова Нагима, д.с.н, профессор (Узбекистан)
Саидов Чорихон, д.ф.м.н, профессор (Узбекистан)
Бозоров Лутфулла, д.т.н. (Узбекистан)
Махмудов Юсуп, д.п.н, профессор (Узбекистан)
Худойкулов Хол, д.п.н, профессор (Узбекистан)
Алимов Парда, ф.ф.н, профессор (Узбекистан)
Халикназаров Бегали, к.б.н, доцент (Узбекистан)
Кодиров Бахтиёр, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Таджиев Панджи, д.т.н., доцент (Узбекистан)
Касимов Шавкат, д.ф.п.н, профессор (Узбекистан)
Саидахматов Шарифбек, д.ф.и.н, доцент (Узбекистан)
Худойбердиев Шухрат, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Умаров Азиз, д.ф.п.н, (Узбекистан)
Абдурахманов Эльдор, д.х.н., профессор (Узбекистан)
Шаббазова Дилфуза, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Нуритдинова Хуршида, д.ф.п.н (Узбекистан)
Кувватова Махира, д.ф.п.н (Узбекистан)
Мардонова Лобар, д.ф.ф.н, доцент (Узбекистан)
Нурматов Норкабил, д.с.н., профессор (Узбекистан)
Исмаилов Ботир, д.ф.п.н (Узбекистан)
Сатторов Сардор, д.ф.п.н (Узбекистан)
Алламурадов Анвар, д.ф.п.н. доцент (Узбекистан)
Кабилова Сайёра, д.ф.ф.н, (Узбекистан)
Исмаилов Муродулла, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Эшмурадов Олмосбек, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Исаев Ойбек, д.ф.и.н (Узбекистан)
Норлиев Рустам, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бердиева Мухаббат, д.ф.п.н, профессор (Узбекистан)
Ширназарова Замира, д.ф.ф.н, доцент (Узбекистан)
Нарбашева Мехри, к.п.н. профессор (Узбекистан)
Кузимуротова Динара, редактор редакционно-издательского отдела, (Узбекистан).

Основатель:
Термезский государственный педагогический институт

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТЕРМЕЗСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА

Журнал издается в печатном и электронном виде (на узбекском, русском, английском языках) в течение одного года.

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан свидетельством № 303723 от 6 июня 2024 года.

Авторы несут ответственность за достоверность источников, выдержек, содержания и информации, используемых в текстах. При копировании из журнала необходимо указывать источник.

Разрешение получено: 12.06.2026.
Размер бумаги: 70x85.
Печатная форма: 26,25.
Офсетная печать.
Офсетная бумага.
Количество: 100 экз.
Цена указана по договорённой цене.
Заказ: 174
Адрес редакции: Термезский район, «Янгиабад» МФМ, улица Ат-Термизи, дом 1-А.
Отпечатано в типографии «ТерГУ».
Адрес типографии: город Термез,улица А.Навоий, дом 42.

ISSN: 3060-4761

Founder:
Termiz State Pedagogical Institute

SCIENTIFIC BULLETIN OF TERMEZ STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL

The magazine is published in printed and electronic form (in Uzbek, Russian, English) in one year.

Registered by the Information and Mass Communications Agency under the Presidential Administration of the Republic of Uzbekistan with certificate No. 303723 dated June 6, 2024.

The authors are responsible for the accuracy of the sources, excerpts, content and information used in the texts. When copying from a journal, the source must be noted.

Permission to print: 12.03.2026
Paper size: 70x85
Printing plate: 26.25
Offset printing.
Offset paper.
Quantity: 100 copies
Price at the agreed price.
Order: 174
Editorial address: Termez district, «Yangiabad» MCK, At-Termiziy street, 1-A.
Printed at the "TerSU printing house". Address: Termez city, A.Navoiy street, 42.

THE EDITOR-IN-CHIEF:
Xasanov Azizbek, Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Kuldasheva Shakhnoza, Doctor of Chemical Sciences (DSc), Professor

TECHNICAL EDITOR:
Qurbanov Abdimalik, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences

RESPONSIBLE SECRETARY:
Turaev Ruziboy, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:
Bernd Müller-Jacquier, Doctor of Philological Sciences, Professor (Germany)
Ponomaryova Lyudmila, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Gerasyov Aleksandr, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Buligina Yelena, Doctor of Philological Sciences, Professor (Russia)
Eshmetov Izzat, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Abdikamalova Aziza, Doctor of Chemical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Salikhanova Dilnoza, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Jumaeva Dilnoza, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Sagdullayeva Dilafruz, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
To'ramuratov Ulug'bek, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Norbo'tayev Xo'shboq, Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. (Uzbekistan)
To'rayev Rasul, Candidate of Physical and Mathematical Sciences, Prof. (Uzbekistan)
Shamuratova Nagima, Doctor of Agricultural Sciences (DSc), Prof. (Uzbekistan)
Saidov Chorikhon, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. (Uzbekistan)
Bozorov Lutfulla, Doctor of Technical Sciences (DSc), (Uzbekistan)
Mahmudov Yusup, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Khudoyqulov Khol, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Parda Alimov, Candidate of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)
Xoliqnazarov Begali, Candidate of Biological Sciences, Associate Professor, (Uzbekistan)
Qodirov Baxtiyor, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Tojiyev Panji, Doctor of Technical Sciences (DSc), Associate Professor (Uzbekistan)
Qosimov Shavkat, PhD, Professor (Uzbekistan)
Saidakhmatov Sharifbek, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Khudoyberdiyev Shuxrat, PhD (Uzbekistan)
Umarov Aziz, PhD (Uzbekistan)
Abduraxmonov Eldor, Doctor of Chemical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Shabbazova Dilfuza, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Nuritdinova Khurshida, PhD (Uzbekistan)
Quvvatova Mohira, PhD (Uzbekistan)
Mardonova Lobar, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Nurmatov Norqobil, Doctor of Agricultural Sciences (DSc), Profess. (Uzbekistan)
Ismailov Botir, PhD (Uzbekistan)
Sattorov Sardor, PhD (Uzbekistan)
Allamuradov Anvar, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Kabilova Sayyora, PhD, (Uzbekistan)
Ismailov Murodulla, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshmuradov Olmosbek, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Isayev Oybek, PhD (Uzbekistan)
Norliyev Rustam, Candidate of Philosophical Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Berdiyeva Muhabbat, PhD, Professor (Uzbekistan)
Shirnazarova Zamira, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Narbasheva Mexri, Candidate of Psychological Sciences, Professor (Uzbekistan)
Kuzimurotova Dinara, Editor, Editorial-Publishing Department (Uzbekistan)

ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

UDK: 94(575.172):327
ORCID 0009-0004-1751-374X

NASRIDDINOV DILOVAR MUSLIXADIM O'G'LI
TerDPI Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti
Tarix kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: nasriddinovdilovar1@gmail.com

QO'NG'IROTLAR SULOLASINING QO'SHNI MAMLAKATLAR BILAN ELCHILIK MUNOSABATLARI TARIXSHUNOSLIGI

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada XIX asrning birinchi yarmi va XX asr boshlarida Xiva xonligida hukmronlik qilgan Qo'ng'irotlar sulolasining qo'shni davlatlar bilan olib borgan elchilik munosabatlari tarixshunosligi tahlil qilingan. Tadqiqot davomida Xiva xonligining Buxoro amirligi, Qo'qon xonligi, Eron, Afg'oniston, Rossiya imperiyasi hamda Buyuk Britaniya bilan amalga oshirgan diplomatik aloqalari mahalliy va xorijiy manbalar asosida o'rganilgan. Maqolada Munis, Ogahiy, Muhammad Yusuf Bayoniy kabi mahalliy tarixnavislar asarlari, shuningdek, N. Zalesov, N. Ignatyev, M. Ivanin, T. Ne'matov, H. Ziyoyev, Ya. G'ulomov va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqotlari qiyosiy tahlil qilingan. Xususan, Rossiya tomonidan Xiva xonligiga yuborilgan diplomatik missiyalar faoliyati, ularning siyosiy va iqtisodiy maqsadlari, ikki davlat o'rtasidagi muzokaralar hamda tuzilgan bitimlarning tarixiy ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, Buyuk Britaniya va Rossiya imperiyasi o'rtasidagi geosiyosiy raqobat sharoitida Xiva xonligining xalqaro munosabatlar tizimidagi o'rni tahlil etilgan. Tadqiqot natijasida Qo'ng'irotlar sulolasi davridagi diplomatik faoliyatning siyosiy barqarorlikni ta'minlash, savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va davlat manfaatlarini himoya qilishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Mazkur maqola Qo'ng'irotlar sulolasining tashqi siyosati va diplomatik munosabatlarini o'rganishda muhim ilmiy manba sifatida xizmat qiladi.

KALIT SO'ZLAR: *Qo'ng'irotlar sulolasi, Xiva xonligi, diplomatik munosabatlar, elchilik aloqalari, tashqi siyosat, Rossiya imperiyasi, Buxoro amirligi, Buyuk Britaniya, tarixshunoslik, xalqaro munosabatlar, diplomatik missiyalar, savdo-iqtisodiy aloqalar*

ИСТОРИОГРАФИЯ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ ДИНАСТИИ КУНГРАТОВ С СОСЕДНИМИ ГОСУДАРСТВАМИ

АННОТАЦИЯ. В данной статье проведён комплексный историографический анализ дипломатических отношений династии Кунгратов с соседними государствами в период её правления в Хивинском ханстве в первой половине XIX – начале XX века. На основе отечественных и зарубежных источников исследованы дипломатические связи Хивинского ханства с Бухарским эмиратом, Кокандским ханством, Ираном, Афганистаном, Российской империей и Великобританией. Особое внимание уделено анализу трудов местных историков Муниса, Огахи, Мухаммада Юсуфа Баяни, а также исследований Н. Залесова, Н. Игнатьева, М. Иванина, Т. Неъматова, Х. Зиёева, Я. Гулямова и других учёных. В статье раскрываются цели и результаты дипломатических миссий Российской империи в Хиву, рассматриваются вопросы политических переговоров, торгово-экономического сотрудничества и заключённых соглашений. Также исследуется место Хивинского ханства в системе международных отношений в условиях геополитического соперничества между Россией и Великобританией в Центральной Азии. Научно обосновано значение дипломатической деятельности династии Кунгратов в обеспечении политической стабильности, развитии торговых связей и защите государственных интересов. Результаты исследования способствуют более глубокому изучению внешней политики Хивинского ханства и расширяют представления о дипломатической истории Центральной Азии.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *династия Кунгратов, Хивинское ханство, дипломатические отношения, посольские связи, внешняя политика, Российская империя, Бухарский эмират, Великобритания, историография, международные отношения, дипломатические миссии, торгово-экономические связи.*

HISTORIOGRAPHY OF THE DIPLOMATIC RELATIONS OF THE QO'NG'IROT DYNASTY WITH NEIGHBORING COUNTRIES

ABSTRACT: This article provides a scholarly analysis of the historiography of the diplomatic relations conducted by the Qo'ng'irot dynasty with neighboring countries. The study examines the diplomatic ties of the Khiva Khanate with the Emirate of Bukhara, the Russian Empire, Iran, and other states on the basis of local and foreign historical sources. The article comparatively analyzes the works of historians such as Munis, Ogahiy, and Bayoniy, as well as the views of modern scholars, highlighting the foreign policy activities of the Qo'ng'irot dynasty. Furthermore, the role of the Khiva Khanate within the context of geopolitical rivalry between Russia and Great Britain is revealed through historical evidence. The political, trade-economic, and international significance of diplomatic relations is substantiated, and their reflection in historical sources is scientifically evaluated. The results of the research serve as an important scholarly basis for a deeper study of the foreign policy of the Qo'ng'irot dynasty

KEYWORDS: *Qo'ng'irot Dynasty, Khiva Khanate, diplomatic relations, embassy relations, foreign policy, Russian Empire, Emirate of Bukhara, Great Britain, historiography, international relations, diplomatic missions, trade and economic relations.*

ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

KIRISH. XIX asrning birinchi yarmi va XX asr boshlarida Xiva xonligida hukmronlik qilgan Qo'ng'irotlar sulolasi davlatning siyosiy, iqtisodiy va diplomatik hayotida muhim o'rin egallagan sulolalardan biri hisoblanadi. Mazkur davrda Xiva xonligi qo'shni davlatlar, jumladan, Buxoro amirligi, Qo'qon xonligi, Eron, Afg'oniston hamda Rossiya imperiyasi bilan turli siyosiy va diplomatik aloqalarni amalga oshirgan. Ayniqsa, elchilik munosabatlari davlatlar o'rtasidagi siyosiy barqarorlikni saqlash, savdo aloqalarini rivojlantirish va tashqi siyosiy manfaatlarni himoya qilishda muhim vosita vazifasini bajargan.

Qo'ng'irotlar sulolasining tashqi siyosati va diplomatik faoliyati tarixiy manbalarda hamda mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar asarlarida turlicha yoritilgan. Shu bois ushbu mavzuning tarixshunosligini o'rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Tarixshunoslik tahlili orqali Qo'ng'irotlar sulolasining elchilik munosabatlari bo'yicha mavjud ilmiy qarashlar, tadqiqot usullari hamda manbaviy asoslarini aniqlash mumkin bo'ladi.

Maqolaning maqsadi: Qo'ng'irotlar sulolasining qo'shni mamlakatlar bilan olib borgan elchilik munosabatlari tarixshunosligini ilmiy tahlil qilish, mazkur mavzu bo'yicha yaratilgan mahalliy va xorijiy tadqiqotlarni qiyosiy o'rganish hamda diplomatik aloqalarning siyosiy, iqtisodiy va madaniy ahamiyatini yoritishdan iborat. Shuningdek, Qo'ng'irotlar sulolasining tashqi siyosiy faoliyati va elchilik munosabatlarining tarixiy manbalarda aks etish darajasini aniqlash ham maqolaning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. XIX asr boshlarida Xiva xonligida hokimiyat tepasiga kelgan Qo'ng'irotlar sulolasi vakillari qo'shni davlatlar bilan diplomatik va savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratganlar. Xonlikning tashqi siyosati va xalqaro munosabatlari tarixshunoslikda ma'lum darajada tadqiq etilgan bo'lsa-da, mahalliy tarixnavislar tomonidan yaratilgan solnomalardagi ma'lumotlardan yetarli darajada foydalanilmagan.

Xiva xonligining mazkur davrdagi tashqi aloqalarini mahalliy manbalar asosida o'rganishga bir qator tadqiqotchilar munosib hissa qo'shganlar. Jumladan K.Munirov [1], T.Ne'matov [2], H.Ziyoyev [3], Ya. G'ulomov [4] hamda boshqa olimlar mahalliy tarixiy asarlar va solnomalar ma'lumotlariga tayangan holda xonlikning xalqaro munosabatlari, elchilik aloqalari va savdo faoliyatining ayrim jihatlarini yoritib berganlar. Biroq ushbu masala hali ham qo'shimcha manbalar asosida chuqurroq tadqiq etishni talab etadi.

XVII–XIX asr va XX asr boshlarida Xorazmda yozilgan tarixiy asarlarda Xiva xonligining Buxoro, Qo'qon xonliklari, Rossiya va boshqa mamlakatlar bilan bo'lgan diplomatik munosabatlari tarixiga doir ma'lumotlarni ham ko'p uchratish mumkin.

1841-yilda Rossiya hukumati Xiva xonligi tomonidan rus asirlarining ozod etilganini ijobiy baholab, xonga imperator nomidan minnatdorlik izhor etish hamda ikki davlat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni qayta tiklash maqsadida maxsus diplomatik missiya yubordi. Mazkur missiyaga kapitan Nikiforov rahbarlik qilgan bo'lib, uning asosiy vazifasi Xiva hukumati bilan o'zaro munosabatlarni mustahkamlash va rasmiy shartnoma tuzish masalalarini muhokama qilishdan iborat edi.

Rossiya hukumati tomonidan Xiva xonligiga yuborilgan kapitan Nikiforov missiyasining faoliyatini tadqiq etishda N. Zalesov(5), I. N. Zaxarin (Yakunin) hamda M. Ivanin (6) asarlari muhim manbalar qatoriga kiradi. Ushbu mualliflarning ishlari missiyaning maqsadi, vazifalari va uning natijalarini yoritishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Rus harbiy yozuvchisi N. Zalesovning mazkur tadqiqoti qariyb 40 betdan iborat bo'lib, muallif uni tayyorlash jarayonida Orenburg o'lkasi General shtabi arxivida saqlanayotgan kapitan Nikiforov missiyasiga oid hujjatlardan keng foydalangan. Shuningdek, maqolaning ilova qismida ushbu arxiv materiallarining ayrim nusxalari ham keltirilgan bo'lib, ular missiya tarixini o'rganishda qimmatli manba vazifasini bajaradi. Natijalar va muhokama. 1839-yilda Xiva xonligiga tashrif buyurgan olti nafar ingliz fuqarosi josuslik faoliyatida gumon qilinib, Olloqulixonning farmoniga ko'ra qatl etilgan. Biroq ko'p o'tmay Buyuk Britaniyaning Hindistondagi vakili Jeyms Abbot Xivaga elchi sifatida yuborildi va xon tomonidan qabul qilindi. Britaniya hukumati elchi zimmasiga Xiva xonligini Rossiya ta'siridan uzoqlashtirish hamda Angliya bilan siyosiy yaqinlashuvni ta'minlash vazifasini yuklagan edi.

Tarixchi Muhammad Yusuf Bayoniy keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, Jeyms Abbot xonga Britaniya manfaatlarini ifodalovchi maktub topshirgan. Unda Rossiya imperiyasining kelgusida Markaziy Osiyo hududlariga nisbatan ekspansion siyosat yuritishi mumkinligi ta'kidlanib, Xiva xonligiga Buyuk Britaniya himoyasini qabul qilish taklif etilgan. Shuningdek, ingliz tomoni bunday hamkorlikning asosiy maqsadi Rossiyaning Hindiston yo'nalishidagi harakatlariga to'sqinlik qilish ekanligini bildirib, Xiva manfaatlariga zarar yetkazilmasligi hamda o'zaro munosabatlar alohida shartnoma asosida tartibga solinishi mumkinligini ma'lum qilgan.

1842-yilda G. I. Danilevskiy boshchiligida Rossiyadan Xiva xonligiga yuborilgan diplomatik missiya, uning oldiga qo'yilgan siyosiy va iqtisodiy vazifalar, Xiva hukumati bilan olib borilgan muzokaralar hamda tomonlar o'rtasida imzolangan shartnoma XIX asrning 40-yillaridagi Rossiya–Xiva munosabatlarini o'rganishda muhim o'rin tutadi. Mazkur davrdagi savdo va diplomatik aloqalarni tadqiq etishda A. G. Serebrennikov, N. Zalesov, I. N. Zaxarin, M. Ivanin, G. I. Danilevskiy va T. Baziner asarlarida keltirilgan ma'lumotlar alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, Xiva tarixnavislik maktabining yirik vakili Ogahiyning asarlarida uchraydigan ayrim ma'lumotlar ham ushbu masalani yoritishda qimmatli manbalardan biri hisoblanadi. Mazkur manbalar orqali ikki davlat o'rtasidagi siyosiy muloqot, savdo aloqalarining holati va o'zaro munosabatlarning rivojlanish xususiyatlarini yanada chuqurroq tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.

N. Ignatyev boshchiligidagi Rossiya missiyasining Xiva xonligiga tashrifi, safarning asosiy maqsadlari, xon bilan olib borilgan muzokaralar, tomonlarning bir-biriga nisbatan munosabati hamda o'sha davrdagi Rossiya–Xiva diplomatik aloqalarini o'rganishda N. Ignatyev, N. Zalesov, A. Butakov, P. Nazarov, E. Klereyn va Muhammad Yusuf Bayoniy asarlari muhim manbalar qatoriga kiradi. Mazkur asarlarda missiyaning faoliyati, uning natijalari va ikki davlat o'rtasidagi siyosiy munosabatlarning ayrim jihatlari batafsil yoritilgan.

Ushbu manbalarning aksariyati rus tilida yozilgan

bo'lib, ularning mualliflari missiya tarkibida bevosita ishtirok etgan shaxslar hisoblanadi. Shu sababli asarlarda keltirilgan ma'lumotlar mualliflarning shaxsiy kuzatuvlari, safar davomida to'plangan materiallar hamda bevosita guvohlik asosida bayon qilinganligi bilan ahamiyatlidir.

N. Ignatyevning mazkur kitobi 275 betdan iborat bo'lib, 1897-yilda Sankt-Peterburg shahrida nashr etilgan. Asarning katta qismi Xiva xonligiga bag'ishlangan bo'lib, unda xonlikning siyosiy holati, Rossiya bilan munosabatlari, diplomatik uchrashuvlar va muzokaralar jarayoni haqida qimmatli ma'lumotlar keltiriladi.(7)

Manbalarda qayd etilishicha, Rossiya tomonidan O'rta Osiyoga yuborilgan diplomatik missiyalarning faoliyati faqat savdo manfaatlari bilan cheklanmagan. Ularning oldiga iqtisodiy vazifalar bilan bir qatorda siyosiy va harbiy ahamiyatga ega bo'lgan topshiriqlar ham qo'yilgan edi. Xususan, missiya Xiva va Buxoro xonliklari bilan Rossiya savdogarlari manfaatlariga mos keladigan savdo bitimlarini tuzish hamda ikki davlat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilishi lozim bo'lgan.

Shuningdek, missiya zimmasiga bir qator strategik vazifalar yuklatilgan edi. Ular orasida Xiva xonligi, Buxoro amirligi va qozoq dashtlari haqida imkon qadar kengroq ma'lumotlar to'plash, avval tuzilgan xaritalarni aniqlashtirish va takomillashtirish, safar davomida muntazam kundalik yuritish kabi topshiriqlar mavjud bo'lgan. Bundan tashqari, Amudaryoning Kaspiy dengiziga tutashgan qadimgi o'zani haqida ma'lumot yig'ish, turkman qabilalari va ularning harbiy salohiyatini o'rganish, qo'shni davlatlar bilan olib borayotgan aloqalarini aniqlash hamda xonliklar o'rtasidagi yo'llar haqida ma'lumot to'plash vazifalari ham missiya faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblangan.

Missiya a'zolari, shuningdek, O'rta Osiyo xonliklari va ularga tutash hududlarda joylashgan davlatlarning harbiy imkoniyatlari, mudofaa holati hamda strategik ahamiyatga ega bo'lgan obyektlar to'g'risida ma'lumot yig'ishga alohida e'tibor qaratganlar. Shu bilan birga, Amudaryoni har tomonlama tadqiq etish va uning iqtisodiy hamda harbiy-strategik imkoniyatlarini baholash ham missiyaning asosiy vazifalari sirasiga kirgan.

1858-yilgi missiya tarkibida ishtirok etgan N. Zalesov o'zining "Военний Сборник " jurnalida 1858–1859-yillarda e'lon qilingan "Писмо из Хивй" nomli maqolasida safar tafsilotlarini batafsil bayon etadi. Muallif unda missiyaning Ustyurt hududidan Qo'ng'irotgacha bo'lgan yo'nalishi, yo'l davomida uchragan aholi va ularning turmush tarzi, shuningdek, Oybug'ir orqali o'tish jarayonida kuzatilgan voqealar haqida qimmatli ma'lumotlar keltiradi.

Maqolada Xiva shahri va uning o'ziga xos xususiyatlari ham alohida tasvirlangan. Jumladan, shaharning geografik muhiti, iqlim sharoiti, aholisi, ko'chalari, bozorlari, karvonsaroylari, mudofaa devorlari va darvozalari haqida muhim kuzatishlar bayon etilgan. Bundan tashqari, muallif Xiva xonligidagi asirlar masalasiga ham to'xtalib o'tadi.

N. Zalesov o'z tadqiqotida Xiva xonligining Eron, Buxoro va Rossiya bilan olib borgan savdo aloqalariga ham qisqacha tavsif beradi. Shu jihatdan mazkur maqola XIX asr o'rtalaridagi Xiva xonligining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotini o'rganishda muhim manbalardan biri hisoblanadi hamda tadqiqotchilar uchun qimmatli tarixiy ma'lumotlarni o'zida mujassam etadi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, Qo'ng'irotlar sulolasining qo'shni davlatlar bilan olib borgan elchilik munosabatlari Xiva xonligining tashqi siyosatida muhim o'rin tutgan. Sulola davrida Buxoro amirligi, Eron, Rossiya imperiyasi hamda boshqa davlatlar bilan diplomatik aloqalar siyosiy barqarorlik va savdo-iqtisodiy manfaatlarni ta'minlashga xizmat qilgan. Tarixiy manbalar va tarixshunoslik tahlili Qo'ng'irot hukmdorlarining diplomatik faoliyati murakkab xalqaro sharoitda olib borilganini ko'rsatadi. Ayniqsa, Rossiya va Buyuk Britaniya o'rtasidagi geosiyosiy raqobat davrida Xiva xonligining tutgan o'rni alohida ahamiyat kasb etgan. Mazkur mavzuning tarixshunosligini o'rganish Qo'ng'irotlar sulolasining tashqi siyosiy faoliyatini yanada chuqurroq tadqiq etish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.МунировҚ. Хоразмда тарихнавислик. – Б. 130-143.

2.Неъматов Т. Хива билан Россия ўртасида муносабатлар тарихига доир баъзи манбалар (XIX асрнинг 20-50-йиллари). — Тошкент: 1957. – Б. 138;

3.Зиёев Ҳ. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. — Тошкент: Шарқ. 1998. – Б.71-79, 293-313.

4.Гулямов Х.Г. Средняя Азия и Россия: истоки формирования межгосударственных отношений (начало XVIII века). — Ташкент: Университет. 2005. – 118 с.

5.Н. Залесов. Посольство в Хнву капитана Никифорова в 1841 г. «Военнмй Сборник», 1861

6.М. И в а н н н. Заметки Иваника. «Военнний Сборннк», 1863. № 1., 496-497-бегтлар.

7.Н. Игнатьев. Мнссия в Хиву и Бухару в 1858 году флигель-адъю- танта полковника Н. Игнатьева. СПб, 1879.